



“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi

“Republican telecommunications management center of Uzbekistan” government unitary enterprise

**“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi  
BUYRUG‘I**

**“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlar to‘plamini yangi tahrirda tasdiqlash to‘g‘risida**

ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari – foydalanish bo‘yicha xalqaro talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini inobatga olgan holda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024-yil 21-oktabrdagi “Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrining namunaviy shakllarini tasdiqlash haqida” 65-son buyrug‘i, Raqamli texnologiyalar vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik)ning 2025-yil 30-oktabrdagi 1/236-son va 2025-yil 25-dekabrda 3/268-son buyruqlari ijrosini ta‘minlash hamda “O‘zTTBRM” DUKning ichki hujjatlarini amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasining tarkibiy bo‘limlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyati 2-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida nizom 3-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi

kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyati 8-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom 9-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha reglament 10-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag'batlantirish to'g'risidagi tartib 11-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi tomonidan kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga kiritish uchun korrupsiyaga qarshi qoidalarning (korrupsiyaga qarshi kurashish shartlari) mazmuni bo'yicha asosiy shartlar 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2024-yil 15-oktabrda “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi Komplaens nazorati bo'limi Nizomi, 18-01-sonli “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi Komplaens nazorati bo'limi boshlig'ining lavozim yo'riqnomasi hamda 18-02-sonli yetakchi mutaxassisining lavozim yo'riqnomasi tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Komplaens nazorati bo'limi (G. Rustamov):

mazkur tasdiqlangan idoraviy hujjatlar to'plami talablaridan kelib chiqib, amalga oshiriladigan ishlarni belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlasin;

**bir hafta muddatda** “O‘zTTBRM” DUKning barcha xodimlarini ushbu buyruq bilan tasdiqlangan ichki hujjatlarning mazmun-mohiyati bilan tanishtirilishini ta’minlasin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, mazkur buyruq bilan tasdiqlangan hujjatlar talablarining buzilishi qonun hujjatlariga muvofiq rahbar va mas’ul xodimlarga intizomiy jazo qo‘llash va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

4. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” davlat unitar korxonasi 2022-yil 10-avgustdagi 215-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassisi (Y. Xodjayev) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan idoraviy hujjatlar to‘plamini “O‘zTTBRM” DUKning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini hamda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati doirasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumotlarni rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borilishini ta’minlasin.

6. Devonxona (R. Asranukulova) ushbu buyruq nusxasini barcha xizmat va bo‘lim boshliqlari hamda tegishli mutaxassislariga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmasida qoldiraman.

**Direktor**



**M. Yuldashev**